



O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish
Respublika ilmiy-metodik markazi

O'zbek tili darslarini zamonaviy metodlar asosida tashkil etish

Kubayeva Nasiba To'rayevna, Zomin tumani 60-sonli
umumta'lim maktabining o'zbek tili fani o'qituvchisi

O'zbek (Davlat) tili fanini 4K modeli yordamida o'qitishning afzalliklari

1

O'quvchilarning amaliy va nazariy bilimlarini mustahkamlanadi.

2

O'quvchilarni mustaqil fikrlashga va o'z fikrini mustaqil bayon qilishga o'rgatadi.

3

Ijodkorlikni rivojlantiradi.

4

Jamoadashlash va o'zaro muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi

5

Ma'lumotlarni tahlil qilish qobiliyatini oshiradi

INNOVATION METODLAR ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL ETISH

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun metodlar

“5 daqiqa” usuli

- O‘quvchilarga mavzu bo‘yicha savollar beriladi: Alisher Navoiyning “**Xamsa**” asari bo‘yicha 5 ta ma’lumot ayting.

"Tahlil daraxti" usuli

- Darslikda berilgan hikoya voqealari daraxtning ildizi, shoxlari va mevasi sifatida tasvirlanadi. Misol: Ildiz: Voqea sabablari, Shox: Syujet rivoji, Meva: Voqeaning yakuni va saboqlari.

IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH UCHUN METODLAR

“Hikoya yaratish” usuli

- Hikoyaning davomini yozish yoki voqealarni zamonaviy kontekstga moslashtirish. Misol: “**Sher bilan Durroj**” hikoyatida sher durrojni yana qutqarganda, keyingi voqealar rivoji qanday bo‘lishi mumkin edi?
- Alisher Navoiy ruboiylarini bugungi she’riyat shaklida yozish.

SCAMPER usuli



- Asar voqealarini o‘zgartirish yoki yangilik kiritish orqali tahlil qilish

HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISH UCHUN METODLAR

“Jamoaviy loyiha” usuli

- Hikoyaning davomini yozish yoki voqealarni zamonaviy kontekstga moslashtirish. Misol: “**Sher bilan Durroj**” hikoyatida sher durrojni yana qutqarganda, keyingi voqealar rivoji qanday bo‘lishi mumkin edi?
- Alisher Navoiy ruboiylarini bugungi she’riyat shaklida yozish.

“Mind map” (idrok xaritasi) usuli

- Ma’lum mavzu doirasidagi ma’lumotlarni xarita ko‘rinishida aks ettirish topshiriq qilib beriladi.



INNOVATION METODLAR ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL ETISH

Kommunikatsiyani rivojlantirish uchun metodlar

“Bahs-munozara” usuli

- O‘quvchilarni ikki guruhga bo‘lib, debad tashkil qilish.
- Misol: “Kasb tanlashda ota-ona xohishiga ko‘ra yo‘nalish tanlagan ma‘qulmi yoki o‘z qiziqishlari asosidami?”

“Rol o‘ynash” usuli:

- Qahramonlar o‘rtasidagi dialoglarni ijro etish.
- Misol: Alisher Navoiyning “Hayrat-ul abror” dostonidagi hikoyatlardan sahna ko‘rinishi.

AMALIY MASHG'ULOT

“Listening” (tinglab tushunish) metodi

1

Bu soʻz inglizcha atama boʻlib, “eshitish”, “eshitib tushunish” degan maʼnoni anglatadi.

2

Ushbu usulni 10-rus sinflarda oʻzbek tili fanining “Renessans” va “Sharq mutafakkirlari” mavzulari boʻyicha yangi mavzu bayonida qoʻllash samaralidir.

3

Oʻquvchilar 4 guruhga boʻlinib, mavzuga oid videorolikdan soʻng 3 daqiqa davomida eslab qolgan maʼlumotlarini yozishadi. Yozgan maʼlumotlari asosida savollar tayyorlab, boshqa guruhlariga berishadi. Eng koʻp savol tuzgan va ularga javob bergan jamoa gʻolib hisoblanadi.

4

Oʻqituvchi moderator vazifasini bajarib, mavzuga oid tuzilgan savollarni va ularga berilgan javoblarni muhokama qiladi, keyin jamoa bilan birgalikda baholaydi.

AMALIY MASHG'ULOT

"Listening" metodi afzalliklari

1

Videoroliklardan samarali foydalana olish va raqobat muhitining yaratilishi

2

Darsning foydalilik koeffitsiyenti oshadi, o'quvchilar mavzuni mustaqil o'zlashtiradi.

3

Chet tillaridagi jarayondan o'zbek tili darslarida metod sifatida samarali foydalanish.

4

O'quvchilar guruhlarda ishlab, ma'lumotlarni bo'lishish orqali bir-birini to'ldiradi.

5

O'rganishda barcha ko'nikmalar (eshitish, ko'rish, nutq, tahlil qilish) dan foydalaniladi.

6

O'quvchi videorolikni ko'rish orqali uni mustaqil ravishda tushunib, analiz qilib, o'zi uchun xulosa chiqaradi

7

O'zaro muloqot orqali nutq so'zlash va gapirishga doir ko'nikmalar rivojlanadi.

AMALIY MASHG'ULOT

“Listening” metodi 4K moduli asosida

1

Kommunikativlik. Videorolikni tinglab, tushungan ma'lumotlarni yozadi va shu asosida savollarga javob beradi

2

Kollaboratsiya. Bu metodda o'quvchilar o'zaro savol-javob orqali ma'lumot almashadi

3

Kreativ fikrlash Videorolikni ko'rish davomida o'quvchi o'z qarashlari asosida ma'lumotlarni yozib oladi va o'z yondashuviga ko'ra savollar tuzadi

4

Kritik fikrlash. O'quvchilar o'zi to'plagan ma'lumotlar asosida savol- javob qilish jarayonida sherigining javobini tanqidiy baholaydi, mavzu yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini shakllantiradi


AMALIY MASHG'ULOT

“Instagram” metodi

Bu metod barcha sinflarda nazorat ishidan keyingi xatolar ustida ishlash soatlarida qo'llaniladi. **Maqsad:** o'quvchilarga notanish bo'lgan mavzularni ularga tanish vositalar orqali tushuntirish.

Doskaga Instagram logotipi va uning ostiga 3 xil mavzu nomi yoki unga oid rasm post ko'rinishida joylashtiriladi. O'quvchilar o'zlari bilgan mavzu yuzasidan ma'lumot aytib, o'sha mavzu yozilgan post ostiga **“like”** shaklidagi stikerlar yopishtirishadi.

Qaysi post ostida **“like”** kam bo'lsa, shu mavzu bo'yicha takrorlash darsi o'tiladi.



AMALIY MASHG'ULOT

“Instagram” metodini darslarda qo'llashning afzalligi

Samaradorligi

O'tilgan mavzular bo'yicha o'quvchilar bilimidagi bo'shliqni aniqlashda samarali natija beradi.

O'ziga xosligi

Nazorat ishidan keyingi xatolar ustida ishlash soatlari samarali va mazmunli tashkil etiladi.

Yangiligi

Darsga o'quvchilarning asosiy vaqti o'tadigan ijtimoiy tarmoqlar unsurlarini olib kirish orqali ularning diqqatini jalb qilish

Qulayligi

Bir vaqtning o'zida bir necha mavzularni takrorlashga imkoniyat yaratiladi va o'quvchilar bilan individual ishlashga imkon bo'ladi

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kun pedagogi ilg'or, har tomonlama ziyrak, mehnatsevar, vijdonli kishi bo'lmog'i lozim. Agar o'qituvchi har kuni yuz berayotgan yangiliklardan xabardor bo'lmasa, kasbiga, faniga doir sara metodik materiallarni o'qib-o'rganmasa, ular xususida fikr mulohaza yurita olmasa, o'quvchilarida namoyon bo'lgan qobiliyatni yuzaga chiqara olmasa, biz uni zamonaviy pedagog deya olmaymiz. Bu hayotda doimo o'zining ustida ishlaganlar va o'zini rivojlantirganlar g'oliblik shohsupasidan joy oladi. Shunday ekan, o'zimizni rivojlantirishdan aslo to'xtamaylik, aziz ustozlar! Zero, bizning asosiy vazifamiz psixolog olim Jan Piaje aytganidek: "...oldingi ajdodlar yaratgan narsalarni shunchaki qaytaradigan emas, balki o'zlari yangi narsalar yaratishga, kashfiyotlar qilishga qodir, kreativ, tanqidiy fikrlay oladigan shaxslarni tarbiyalashdan iboratdir".

**E'TIBORINGIZ UCHUN
RAHMAT!**